

67

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI



Ro'yxatga olindi: № BD-5120500

2020 yil "28" 08

ONTOLOGIYA

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	100000 – Gumanitar soha
Ta'lim sohasi:	120000 – Gumanitar fanlar
Ta'lim yo'nalishi:	5120500-Falsafa (Sharq falsafasi va madaniyati)

Toshkent – 2020



Handwritten signature in blue ink.

8.	Fan/modul uchun ma'sular: Po'latova D.A. – TDSHU, «Sharq falsafasi va madaniyati» kafedrası mudiri, falsafa fanlari nomzodi, professor. Sulaymonov J.B.– TDSHU, «Sharq falsafasi va madaniyati» kafedrası katta o'qituvchisi
9.	Taqrizchilar: G.M. Ro'zmatova -UzMU «Falsafa va mantiq» kafedrası professori, falsafa fanlari doktori, professor; D.E. Fayzixodjayeva -UzMU «Falsafa va mantiq» kafedrası dotsenti, falsafa fanlari nomzodi, dotsent.

Fan/modul kodi UONT222		O'quv yili 2020-2021	Semestr 2	ECTS - Kreditlar 2	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 2	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
	Ontologiya	30	30	60	
2.	I. Fanning mazmuni Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda borliq, uning asosiy shakllari va mavjudlik usullari, borliqning yalpi o'zaro aloqadorligi va rivojlanishi, falsafa qonunlari va kategoriyalari bo'yicha nazariy bilimlarni o'rgatish va amaliyotda tatbiq etish konikmasini shakllantirishdan iborat. Fanning vazifasi – mamlakatimiz hamda yetakchi xorijiy davlatlarning ilm-fan yutuqlari, ilg'or pedagogik texnologiyalari va ilmiy adabiyotlari asosida talabalarga hozirgi davr ontologiyasining muammolarini, Sharq va G'arb falsafiy madaniyatidagi ontologik masalalar haqida nazariy bilimlarni berish, ularda uslubiy yondashuv amaliy ko'nikmalarini hamda ilmiy dunyo-qarashni shakllantirish vazifalarini bajaradi. II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-mavzu. "Ontologiya" - borliq falsafasi sifatida Fanning predmeti, mazmuni va strukturasi. Falsafada substansiya muammosi. Substansiya va substrat tushunchasi. Falsafiy yo'nalishlar. Dunyo ibtidosining tabiati to'g'risidagi masala. Monizm, dualizm, plyuralizm. Ontologiya tushunchasi. Borliq kategoriyasi. Borliq, mavjudlik va reallik. Borliq va yo'qlik dialektikasi. Noklassik borliq tushunchasi. XX asrda borliqni tushunishni tarixiylik, insonning mavjudligi, qadriyatlar va til bilan bog'lab, uning talqinining kengaytirilishi. Borliqning shakllari: moddiy va g'oyaviy borliq, aktual va potensial borliq, real va virtual borliq. Tabiiy, ijtimoiy va ma'naviy borliq. XX asrda vujudga kelgan ekologik tanglikning sabablari va oqibatlari. Ekologik tanglik tabiiy, ijtimoiy va ma'naviy borliq orasidagi o'zaro mutanosiblikning buzilishi sifatida.				

2-mavzu. Ong– borliqning ma'naviy shakli

Ong – falsafaning sub'yektiv reallikni ifodalovchi kategoriyasi; insonning ma'naviy dunyosi; o'zligini anglab yetishi; uning tashqi dunyoga munosabati sifatida. Falsafada ong muammosi. Ongning kelib chiqishi muammosi bo'yicha diniy, idealistik, materialistik, dualistik yondoshuvlarning mohiyati.

Ongning sigmentlari: sezgi, idrok, emotsiya, iroda, xotira, shubha, ishonch, e'tiqod, g'oya, tafakkur. Tafakkur inson borlig'ining o'ziga xos tashqi faoliyatni tashkil qilish qobiliyatida namoyon bo'lishi. *Ongosti* sohasi, uning tabiati va shakllari.

Inson ongining til bilan uzviy bog'liqligi. Ongning biologik va ijtimoiy omillari. Ong va ijtimoiy muhit. Ongning asosiy funksiyalari: refleksiv funksiya, gnoseologik funksiya, germeneytik funksiya, ijodiy funksiya, pragmatik funksiya.

3-mavzu. Materiya falsafa va tabiatshunoslikning kategoriyasi sifatida

Materiya kategoriyasining mohiyati. Materiya tashkil etilganligining strukturaviy darajalari. Anorganik dunyo. Organik dunyo. Ijtimoiy dunyo.

Materiyaning miqyosiy darajalari: mikroolam, makroolam va megaolam. Mikroolamning xususiy jihatlari. Geotsentrik va nogeotsentrik moddiy tizimlar. Dunyoning yaxlitligi va rang barangligi. Dunyo birligining fundamental asoslari. Kosmologiya. Borliqning kelib chiqishi haqidagi konsepsiya va modellar. Statsionar borliq modeli. Borliqning kengayishi modeli. Katta portlash nazariyasi.

Falsafa va fanda hayotning kelib chiqishi va evolyusiyasi muammosi. Jonli va jonsiz tabiat tushunchasi. Hayotning kelib chiqishi haqidagi konsepsiyalar. Hayotning kelib chiqishi haqidagi tabiiy-ilmiy konsepsiyaning mohiyati. Hayotning moddiy asosi.

4-mavzu. Harakat borliqning mavjudlik usuli sifatida

Harakat tushunchasi. Falsafa tarixida harakatning talqini. Harakatning moddiy asosi va harakatlantiruvchi kuch. Harakat manbasi. Harakatning abadiyligi. Harakat mutlaqligi va sokinlikning nisbiyligi. Harakat va rivojlanish. Harakat – o'zgarish sifatida. Harakatning ziddiyatliligi. O'z-o'zidan harakat g'oyasi.

Materiya harakati shakllarining tasnifi. Materiya harakat shakllarining o'zaro aloqasi. Harakat shakllarini tasniflashning hozirgi metodologiyasi. Rivojlanishning asosiy va ikkinchi darajali yo'nalishlari. Materiya haraka-

tashkil etish bo'yicha muhim vazifalar belgilab berildi (Besh tashabbus)/<http://www.uza.uz/oz/politics/prezident-yeshlar-manaviyatini-yuksaltirish-ularning-b-sh-va-19-03-2019>

15. Karimov I.A. To'la asarlar to'plami. 1-24 jildlar. – T.: O'zbekiston, 1996-2016.

16. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat–yengilmas kuch. –T.:Ma'naviyat, 2008.

17. To'raev B. Borliq: mohiyati, shakllari, xususiyati. O'quv qo'llanma. –T.: O'zRFA Falsafa va huquq instituti, 2011.

18. Shermuxamedova N.A. Borliq falsafasi (elektron darslik).

19. Pulatova D. Falsafa. Falsafa asoslarining mantiqan-tizimlashgan amaliy kursi. O'quv qo'llanma. – T.:TDSHI. 2011.

20. Po'latova D., Ruzmatova G. G'arb falsafasi tarixi. O'quv qo'llanma. –T.: Fan va texnologiya, 2018.

21. Кармин А.С., Бернцкий Г.Г. Философия. Учебник. – М., 2009.

22. Пулатова Д.А., Изетова Э.М. Философия. Учебное пособие. – Т.:ТДШИ. 2013.

Internet saytlari

23. www.lex.uz.

24. www.gov.uz.

25. www.library.ziynet.uz.

26. www.faylasuf.uz.

27. http://booksss.ru/философия/Slovar_Philosof.rar

28. <http://znanium.com/bookread2.php?book=309109>. Алексеев П., Панин А. Философия. М., 2014.

29. <http://znanium.com/bookread2.php?book=309109> Философия/ Под ред В.Н. Лавриенко. М., 2013.

30. <http://znanium.com/bookread2.php?book=309109>. Философия/ Под ред В.П. Кохановского. М., 2013.

7. Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2020 yil "29" 08 dagi 4 -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil "29" 08 dagi 452 -sonli buyrug'i bilan ma'qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta'lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan.

	• guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.
6.	Asosiy adabiyotlar 1. Falsafa. Darslik // Ahmedova M.A. umumiy tahriri ostida –T.: OFMJ, 2006. 2. Основы философии. Учебник / Под ред. М.А. Ахмедовой, В.С. Хана. – Т.: 2004. 3. Бакеева Е.В. Введение в онтологию: образы мира в европейской философии: курс лекций. Учебное пособие. – Екатеринбург, 2014. 4. Marc A. Hight. Idea and ontology: an essay in early modern metaphysics of ideas. The Pennsylvania State University Press, 2008. Qo'shimcha adabiyotlar: 5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O'zbekiston, 2016. 6. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. –T.: O'zbekiston, 2017. 7. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –T.: 2017. 8. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. –T.: O'zbekiston, 2017. 9. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. –T.: O'zbekiston, 2018. 10. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуг халқнинг иши ҳам улуг, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. –Т.: Ўзбекистон, 2019. 11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. www.press-service.uz/uz/lists/view/1371 12. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasi// https://www.lex.uz 13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekistondagi Islom madaniyati markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida// www.press-service.uz/uz/lists/view/688 14. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli

tining asosiy, xususiy va kompleks shakllari. Harakatning geologik shakli. Harakatning texnik, kibernetik, informatsion shakllari. Energiya va energetizm g'oyasi. Energetizm va Olamning issiqlikdan o'lish konsepsiyasining tanqidi. Ruhiy energiyaning o'ziga xos xususiyatlari. 5-mavzu. Borliqning mavjudlik shakllari: makon va vaqt Makon va vaqt kategoriyalarining mohiyati. Makon va vaqtning umumiy xossalari: ob'ektivlik, abadiylik, cheksizlik va ichki ziddiyatlilik. Makonning uch o'lchovlilik. Vaqt tartibi va yo'nalishi. Vaqtning dinamik va statik konsepsiyalari. O'tmish – hozirgi zamon – kelajak dialektikasi. Hozirgi zamon – lahza va davomlilik sifatida. Ijtimoiy makon va ijtimoiy vaqt. Ijtimoiy vaqtning o'lchamlilik muammosi. Makon va vaqtning subtansional va relyatsion konsepsiyalari. Makon va vaqtning dinamik va statik konsepsiyalari. Makon va vaqtning mikro-, makro- va megaolamdagi xususiyatlari. To'rt o'lchovli makon va vaqt modeli. Makon va vaqtning metrik va topologik xossalari. Makon va vaqtning izotropiligi va bir xillili. Dunyoning makon va vaqtda cheksizligi. Cheklilik va cheksizlik dialektikasi. 6-mavzu. Dialektika va sinergetika borliqni anglashning umumiy metodologiyasi sifatida Dialektika rivojlanish nazariyasi va bilishning umumiy metodologiyasi sifatida. Dialektikaning tarixiy shakllari va xususiyatlari. Dialektikaning muqobillari metafizika, dogmatizm, relyativizm, sofistika, eklektika. Dialektika va metafizika rivojlanishning ikki konsepsiyasi va bilishning ikki metodi sifatidagi muqobilligi. Yalpi o'zaro aloqadorlik va rivojlanish dialektikning umumiy tamoyillari sifatida. Dialektika va sinergetika. Sinergetika o'z-o'zini tashkil etish nazariyasi sifatida. Bifurkatsiya, fluktuatsiyalar. O'zini o'zi tashkil etuvchi jarayonlarda dialektik ziddiyatlar: beqarorlik va barqarorlik, tartibsizlik va tartiblilik. 7-mavzu. O'zaro aloqadorlik va rivojlanishning umumiy kategoriyalari va qonunlari Kategoriya tushunchasi va uning tasnifi. Ontologik kategoriyalar.
--

Alohidalik, xususiylik va umumiylik dialektikasi. Butun va bo'lak. Sistema, element, struktura. Sistemalarning o'ziga xos xususiyatlari.

Borliqning o'zaro aloqadorlik kategoriyalari. Mohiyat va hodisa. Mazmun va shakl. Mazmun va shaklning dialektikasi. Formalizm. Sabab va oqibat. Bahona va sabab. Sinergetika sababiyat haqida.

Zaruriyat va tasodif. Imkoniyat va voqelik. Imkoniyatlarning turlari.

Qonun tushunchasining mazmuni. Qonunlarning tasnifi. Falsafa qonunlari. Qarama-qarshiliklarning birligi qonuni. Miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi qonuni. Inkorni inkor qonuni. Borliqning mohiyatini anglab yetishda rivojlanishning umumiy kategoriyalari va qonunlarining ahamiyati.

III. Amaliy mashg'ulotlari buyicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. "Ontologiya" - borliq falsafasi sifatida.
2. Ong- borliqning ma'naviy shakli.
3. Materiya falsafa va tabiatshunoslikning kategoriyasi sifatida.
4. Harakat borliqning mavjudlik usuli sifatida.
5. Borliqning mavjudlik shakllari: makon va vaqt.
6. Dialektika va sinergetika borliqni tadqiq etishning umumiy metodologiyasi sifatida
7. Ontologiyaning o'zaro aloqadorlik kategoriyalari.
8. O'zaro aloqadorlik va rivojlanishning umumiy qonunlari.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Falsafa tarixida borliq muammosi.
2. Borliq masalasida falsafa va fan sintezi.
3. Falsafada substansiya muammosi.
4. Materiya shakllarining turli tumanligi.
5. Noorganik, organik va ijtimoiy tizimlar.
6. Dunyoning makon va vaqtda cheksizligi masalasi.

7. Irratsionalizm ong haqida.

8. Ongning materialistik konsepsiyasi.

9. Ongning strukturasi va funksiyalari.

10. Dialektikaning tarixiy shakllari va xususiyatlari.

11. Dialektikaning asosiy tamoyillari va qonunlari.

12. Sinergetikaning asosiy tushunchalari va tamoyillari.

13. Miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi qonuni.

14. Inkorni inkor qonuni.

15. O'rta Osiyo mutafakkirlari ijodida ontologik masalalar.

Mustaqil ta'lim quyidagi shakllarda tashkil etiladi:

– mavzuga oid falsafiy matnni o'qish va tavsiflash, komparativistik tahlil qila olish;

– mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish va ulardan konspekt olish;

– mavzular bo'yicha referat, esse tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi;

– seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish;

– ilmiy maqola va tezislarni tayyorlash;

– fanning dolzarb muammolarini qamrab oluvchi loyihalar tayyorlash;

– o'rganilayotgan mavzu bo'yicha asosiy ilmiy adabiyotlarga annotatsiya yozish va boshqalar.

3. V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. **Talaba:**

- borliq haqidagi falsafiy ta'limotlar, hozirgi davr ontologiyasining muammolari **haqida tasavvurga ega bo'lishi;**

- borliqning mavjudlik shakllari va usullini, olamning moddiy asosi, tashkil etilganligining strukturaviy va miqyosiy darajalarini; yalpi o'zaro aloqadorlik va rivojlanishning umumiy kategoriyalari hamda qonunlarini **bilishi va ulardan foydalana olishi;**

- ontologik kategoriyalar, qonunlarni ijtimoiy-madaniy jarayonlarni hamda ma'naviy merosni tadqiq etishda, ularning shaxs va jamiyat ma'naviy yuksalishidagi ahamiyatini tahlil qilishda qo'llash **ko'nikmalariga ega bo'lishi.**

4. VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- ma'ruzalar;

- interfaol keys-stadilar;

- seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);